

IJTIMOY XAVF OSTIDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA EKOTIZIMLI YONDASHUV VA INSONPARVARLIK PARADIGMASINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Manzura Qosmuratova,

Jumabek Tashenev nomidagi universitet katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy xavf ostidagi bolalar rivojlanishini ta'minlashda U.Bronfenbrennerning ekotizimli yondashuvi va insonparvarlik paradigmasining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Muallif bola rivojini mikro, mezo, ekzo va makrotizimlarning o'zaro ta'siri sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada ta'lim tizimida himoya, qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolat tamoyillarining ustuvorligi, shuningdek, oila-maktab-jamoa hamkorligining bola ijtimoiy moslashuvdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekotizimli yondashuv, U.Bronfenbrenner, ijtimoiy xavf, insonparvarlik paradigmasi, mikromuhit, ijtimoiy adolat, pedagogik qo'llab-quvvatlash, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В данной статье анализируются научно-теоретические основы экосистемного подхода У. Бронфенбреннера и гуманистической парадигмы в обеспечении развития детей, находящихся в зоне социального риска. Автор рассматривает развитие ребенка как взаимодействие микро-, мезо-, экзо- и макросистем. В статье освещаются приоритетность принципов защиты, поддержки и социальной справедливости в системе образования, а также роль партнерства «семья-школа-сообщество» в социальной адаптации ребенка.

Ключевые слова: экосистемный подход, У.Бронфенбреннер, социальный риск, гуманистическая парадигма, микросреда, социальная справедливость, педагогическая поддержка, устойчивое развитие.

Abstract. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of U. Bronfenbrenner's ecosystem approach and the humanistic paradigm in ensuring the development of children at social risk. The author examines child development as an interaction of micro-, meso-, exo-, and macrosystems. The article highlights the priority of the principles of protection, support, and social justice in the education system, as well as the role of the "family-school-community" partnership in the social adaptation of the child.

Keywords: ecosystem approach, U. Bronfenbrenner, social risk, humanistic paradigm, microenvironment, social justice, pedagogical support, sustainable development.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida bola shaxsiyatining barkamol rivojlanishini ta'minlash pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlarning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy xavf ostidagi bolalar masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday bolalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar nafaqat shaxsiy, balki oilaviy, ijtimoiy va madaniy muhit bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

An'anaviy pedagogik yondashuvlarda bola ko'p hollarda ta'lim jarayonining ob'yekti sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy ilmiy qarashlar uni faol sub'yekt sifatida talqin etadi. Shu nuqtai nazardan, bola rivojlanishini faqat maktab doirasida o'rganish yetarli emasligi, balki uni o'rab turgan barcha ijtimoiy muhitlar tizimi bilan birgalikda tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ekotizimli yondashuv ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda shakllangan ilmiy konsepsiya bo'lib, u bola rivojlanishini turli darajadagi muhitlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar

natijasi sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, bola rivoji mikromuhit (oil, maktab, tengdoshlar), mezomuhit (ushbu muhitlar o‘rtasidagi munosabatlar), ekzomuhit (keng ijtimoiy tizimlar) va makromuhit (madaniyat, qonunchilik, ijtimoiy qadriyatlar) ta‘sirida kechadi.

Shu bilan birga, insonparvarlik paradigmasi bola shaxsiyatini ta‘lim jarayonining markaziga qo‘yib, uning ehtiyojlari, imkoniyatlari va ichki dunyosiga hurmat bilan yondashishni talab etadi. Bu paradigma bolani faqat bilim oluvchi emas, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida ko‘radi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – ijtimoiy xavf ostidagi bolalar rivojlanishida ekotizimli yondashuv va insonparvarlik paradigmasining o‘rni hamda pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot mavzusini yoritishda inson rivojlanishi, shaxs shakllanishi va ta‘lim-tarbiya jarayonini tushuntiruvchi yetakchi nazariy manbalarga tayanildi. Jumladan, U. Bronfenbrenner, K. Rodjers, A. Maslou, L.S. Vigotskiy va J. Piaje kabi olimlarning ilmiy qarashlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Avvalo, U. Bronfenbrennerning “Ekologiya chelovecheskogo razvitiya” asari inson rivojlanishini tushuntirishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Ushbu asarda bola rivojlanishi turli muhitlar – mikromuhit, mezomuhit, ekzomuhit va makromuhit ta‘sirida kechishi asoslab berilgan. Muallif inson rivojlanishini faqat ichki omillar bilan emas, balki tashqi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Tadqiqot uchun mazkur yondashuv bolalar rivojlanishini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, bir manbaning bir necha bor takrorlanishi ushbu nazariyaning dolzarbligi va asosiy manba sifatida qo‘llanilganligini ko‘rsatadi.

K. Rodjersning insonparvarlik psixologiyasiga oid qarashlari shaxs rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning “Stanovleniye lichnosti” asarida insonning ichki imkoniyatlari, o‘zini anglashi va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati asosiy o‘rinni egallaydi. Rodjers insonni faol, mustaqil va o‘z taqdirini belgilay oladigan subyekt sifatida baholaydi. Bu yondashuv ta‘lim jarayonida bolaga nisbatan insonparvar munosabatni shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

A. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi ham mazkur tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega. U inson ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondirish orqali uning shaxsiy kamolotga erishishini tushuntiradi. Maslou ta‘lim jarayonida avvalo bolaning asosiy ehtiyojlari – xavfsizlik, muhabbat va e‘tirof ehtiyojlari qondirilishi lozimligini ta‘kidlaydi. Bu esa ijtimoiy xavf ostidagi bolalar bilan ishlashda ayniqsa dolzarbdir.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi bola psixologiyasini tushunishda fundamental ahamiyatga ega. Uning fikricha, bola rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va bola o‘rtasidagi

hamkorlikning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu nazariya bolalarni qo'llab-quvvatlash va ularning imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

J. Piaje tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning fikrlash jarayonlarini bosqichma-bosqich shakllanishini tushuntiradi. Uning qarashlariga ko'ra, bola atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida bilimlarni o'zlashtiradi va kognitiv strukturalarni shakllantiradi. Zamonaviy tadqiqotlarda Piaje nazariyasi postpiajean yondashuvlar bilan boyitilib, kognitiv rivojlanishning yanada keng va chuqur talqini berilmoqda.

Yuqorida keltirilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson rivojlanishini tushuntirishda turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi bola shaxsiyatining ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda shakllanishini tan oladi. Xususan, ekotizimli yondashuv (Bronfenbrenner), insonparvarlik psixologiyasi (Rodjers, Maslou), madaniy-tarixiy yondashuv (Vigotskiy) va kognitiv rivojlanish nazariyasi (Piaje) o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ilmiy qarashlar sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy xavf ostidagi bolalar rivojlanishida ekotizimli yondashuv va insonparvarlik paradigmasining pedagogik ahamiyatini chuqur o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy usullar uyg'unlashtirilgan holda qo'llanib, muammoni har tomonlama tahlil qilishga erishildi.

Avvalo, tadqiqotning nazariy poydevorini yaratish maqsadida ilmiy-metodik manbalar tahlili amalga oshirildi. Bu jarayonda pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ish sohalariga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda xalqaro tadqiqotlar o'rganildi. Ushbu usul orqali ekotizimli yondashuvning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari va insonparvarlik paradigmasi bilan o'zaro bog'liq jihatlari aniqlandi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy ilmiy usullardan foydalanildi:

- nazariy tahlil usuli orqali ekotizimli yondashuv, insonparvarlik paradigmasi va ijtimoiy xavf tushunchalarining ilmiy ta'riflari, mazmuni va o'zaro aloqadorligi o'rganildi;
- tizimli tahlil usuli yordamida bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi mikromuhit, mezomuhit, ekzomuhit va makromuhit omillari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi;
- qiyosiy tahlil usuli asosida an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan ekotizimli yondashuvning farqli va ustun jihatlari solishtirildi;
- empirik kuzatuv usuli orqali ta'lim muassasalarida bolalarning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari, xulq-atvori va psixologik holati kuzatildi;
- so'rovnomma va intervyu usuli orqali o'qituvchilar, ota-onalar va ijtimoiy xodimlarning fikrlari o'rganilib, bola rivojiga ta'sir etuvchi omillar haqida amaliy ma'lumotlar to'plandi;
- kontent-tahlil usuli yordamida ta'lim dasturlari, tarbiyaviy rejalar va normativ hujjatlar tahlil qilinib, ularda insonparvarlik va himoya tamoyillarining aks etish darajasi baholandi;

– pedagogik tajriba tahlili orqali amaliyotda qo‘llanilayotgan yondashuvlarning samaradorligi o‘rganildi;

Tadqiqot jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshirildi:

– birinchi bosqichda muammoning nazariy asoslari o‘rganilib, ilmiy manbalar tahlil qilindi;

– ikkinchi bosqichda empirik ma‘lumotlar to‘planib, kuzatuv va so‘rovlar o‘tkazildi;

– uchinchi bosqichda olingan natijalar tizimlashtirilib, tahlil qilindi;

– to‘rtinchi bosqichda ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot ob‘yektini sifatida ijtimoiy xavf ostidagi bolalarning rivojlanish jarayoni tanlandi. Predmeti esa mazkur jarayonda ekotizimli yondashuv va insonparvarlik paradigmasining pedagogik ta‘siri va imkoniyatlaridan iborat bo‘ldi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta‘minlash maqsadida turli manbalardan olingan ma‘lumotlar o‘zaro solishtirildi va tahlil qilindi. Shuningdek, natijalarni umumlashtirishda ilmiy xolislik va ob‘yektivlik tamoyillariga qat‘iy rioya etildi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot muammosini chuqur va har tomonlama o‘rganish, shuningdek, ijtimoiy xavf ostidagi bolalar bilan ishlashda samarali pedagogik yechimlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari ijtimoiy xavf ostidagi bolalar rivojlanishida ekotizimli yondashuv va insonparvarlik paradigmasining muhim va samarali omil ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, bola rivojlanishi bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘zaro bog‘liq muhitlar ta‘sirida kechadi va ushbu muhitlar o‘rtasidagi muvofiqlik darajasi uning shaxsiy, psixologik va ijtimoiy shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ijtimoiy xavf ostidagi bolalarda rivojlanish jarayoni ko‘p hollarda nomutanosib va murakkab tarzda kechadi. Bu esa quyidagi omillar bilan izohlandi:

– oilaviy muhitdagi nizolar, beqarorlik yoki e‘tibor yetishmasligi bolaning emosional holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi;

– maktabdagi muvaffaqiyatsizliklar va psixologik bosim bolaning o‘z-o‘zini baholashini pasaytiradi;

– tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolar ijtimoiy moslashuvni qiyinlashtiradi;

– keng ijtimoiy muhitdagi (ommaviy axborot vositalari, internet, jamoa) salbiy ta‘sir bolaning xulq-atvoriga ta‘sir qiladi;

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ijobiy muhit omillarining bola rivojiga kuchli ta‘sir ko‘rsatishini ham namoyon etdi. Xususan:

– qo‘llab-quvvatlovchi oila muhiti bolaning ishonchini va ruhiy barqarorligini oshiradi;

– maktabdagi ijobiy psixologik muhit o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi;

– o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi;

– jamoa va mahallaning faol ishtiroki bolaning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Ekotizimli yondashuv doirasida bola rivojiga ta’sir etuvchi muhitlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik quyidagicha namoyon bo‘ldi:

– mikromuhit darajasida (oila, maktab, tengdoshlar) bolaning kundalik hayoti va asosiy ijtimoiy tajribasi shakllanadi;

– mezomuhit darajasida ushbu muhitlar o‘rtasidagi munosabatlar (masalan, ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi) bola rivojiga qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatadi;

– ekzomuhit darajasida jamiyatdagi iqtisodiy, axborot va ijtimoiy omillar bilvosita ta’sir ko‘rsatadi;

– makromuhit darajasida madaniy qadriyatlar, qonunchilik va ijtimoiy siyosat bola tarbiyasiga umumiy yo‘nalish beradi;

Tadqiqot davomida insonparvarlik paradigmasi asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti alohida samaradorlik ko‘rsatgani aniqlandi. Bunday muhitda:

– bolalar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta boshlaydi;

– ularda o‘z-o‘zini anglash va o‘zini qadrlash hissi shakllanadi;

– emosional barqarorlik va ijtimoiy faollik ortadi;

– o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiya kuchayadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy xavfni kamaytirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi:

– oila, maktab va jamoa o‘rtasidagi uzviy hamkorlik;

– pedagog, psixolog va ijtimoiy xodimlar faoliyatining integratsiyasi;

– profilaktik va qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarni joriy etish;

– bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, agar ta’lim jarayonida ekotizimli yondashuv va insonparvarlik tamoyillari birgalikda qo‘llanilsa, quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:

– bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasi oshadi;

– xulq-atvordagi salbiy holatlar kamayadi;

– ta’lim natijalari yaxshilanadi;

– ruhiy barqarorlik va o‘z-o‘ziga ishonch mustahkamlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bola rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni alohida-alohida emas, balki yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish pedagogik faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ekotizimli yondashuvning ilmiy va amaliy jihatdan to‘g‘ri tanlanganligini tasdiqlaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy xavf ostidagi bolalar rivojlanishini ta’minlashda an’anaviy pedagogik yondashuvlar yetarli emas. Chunki bunday yondashuvlarda asosiy e’tibor ko‘p hollarda ta’lim jarayoni va akademik natijalarga qaratilgan bo‘lib, bolaning keng ijtimoiy muhiti va uning ta’siri

yetarli darajada hisobga olinmaydi. Shu nuqtai nazardan, ekotizimli yondashuv bola rivojini tushinishda yanada keng va chuqur imkoniyatlar yaratadi.

Ekotizimli yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u bolani faqat alohida sub'yekt sifatida emas, balki turli darajadagi ijtimoiy tizimlar bilan uzviy bog'liq holda ko'radi. Bu esa bola rivojlanishini izohlashda sabab-oqibat aloqalarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oiladagi ijobiy muhit maktabdagi muvaffaqiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, aksincha, maktabdagi stress va muammolar oilaviy munosabatlarga ham salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Demak, bola rivojlanishi bir tomonlama emas, balki o'zaro ta'sirlar tizimida kechadi.

Muhokama jarayonida insonparvarlik paradigmasining ahamiyati ham alohida ta'kidlandi. Ushbu paradigma bolani ta'lim jarayoni markaziga qo'yib, uning shaxsiy ehtiyojlari, imkoniyatlari va ichki dunyosiga hurmat bilan yondashishni nazarda tutadi. Insonparvarlik yondashuvi qo'llanilgan muhitda bolalar o'zlarini xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan his qiladilar. Bu esa ularning emosional barqarorligi, ijtimoiy faolligi va ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Shu bilan birga, muhokama natijalari ijtimoiy xavfni kamaytirishda kompleks va integrativ yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Ya'ni, faqat maktab doirasidagi chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, quyidagi yo'nalishlarda ham faoliyat olib borish talab etiladi:

- oila bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish
- mahalla va jamoa resurslarini ta'lim jarayoniga jalb qilish
- ijtimoiy xizmatlar, psixologlar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish
- profilaktik va korreksion dasturlarni amalga oshirish

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, agar mazkur tizimlar o'zaro muvofiq va maqsadga yo'naltirilgan holda ishlasa, ijtimoiy xavf darajasi sezilarli ravishda kamayadi. Aks holda, har bir tizim alohida faoliyat yuritsa, kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi.

Muhokama jarayonida axloqiy va gumanistik tamoyillarning ahamiyati ham alohida o'rin tutadi. Chunki ijtimoiy xavf ko'p hollarda nafaqat iqtisodiy yoki ijtimoiy muammolar, balki ma'naviy qadriyatlar inqirozi bilan ham bog'liq bo'ladi. Shu bois ta'lim jarayonida quyidagi axloqiy qadriyatlarni shakllantirish muhim hisoblanadi:

- adolat va tenglik
- mehr-oqibat va hamdardlik
- mas'uliyat va hurmat
- insoniy qadr-qimmatni e'tirof etish

Bunday qadriyatlarga asoslangan ta'lim muhiti bolaning nafaqat bilim olishi, balki uning shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi. Shuningdek, muhokama natijalari ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillarining o'zaro bog'liqligini ham ko'rsatdi. Ijtimoiy adolat har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutsa, barqaror

rivojlanish kelajak avlod uchun xavfsiz va sog‘lom muhitni ta‘minlashga qaratilgan. Bu ikki tamoyilni ta‘lim tizimiga joriy etish orqali ijtimoiy xavflarni oldini olish mumkin.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandiki, zamonaviy maktab faqat bilim beruvchi muassasa emas, balki ijtimoiy-pedagogik markaz sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bu esa quyidagilarni talab qiladi:

- maktabda psixologik xizmatlarni kuchaytirish
- ijtimoiy pedagoglar faoliyatini takomillashtirish
- ota-onalar bilan muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish
- bolalar uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish

Shu tarzda, ekotizimli yondashuv va insonparvarlik paradigmasining uyg‘unligi ijtimoiy xavf ostidagi bolalar bilan ishlashda eng samarali strategiya sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv nafaqat muammolarni bartaraf etish, balki ularning oldini olish va bolaning barkamol rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, bola rivojlanishini ta‘minlashda yagona, tizimli va insonparvar yondashuvni joriy etish zamonaviy ta‘lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa nafaqat alohida bolaning, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy xavf ostidagi bolalar rivojlanishini ta‘minlashda ekotizimli yondashuv va insonparvarlik paradigmasining o‘ta muhim va samarali ilmiy-amaliy asos ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bola rivojlanishini faqat bir yo‘nalish doirasida – masalan, ta‘lim yoki psixologik omillar bilan cheklab o‘rganish yetarli emas. Aksincha, uni kompleks, tizimli va ko‘p darajali ijtimoiy muhit ta‘sirida shakllanuvchi jarayon sifatida qarash zarur.

Avvalo, ekotizimli yondashuv bola shaxsiyati rivojlanishini chuqur va har tomonlama tushunish imkonini beruvchi ilmiy model sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu yondashuv bolani mikromuhit, mezomuhit, ekzomuhit va makromuhit kabi turli darajadagi muhitlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishga asoslanadi. Shu jihatdan, bola rivojiga ta‘sir etuvchi omillarni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, insonparvarlik paradigmasi ta‘lim jarayonining mazmuni va mohiyatini belgilab beruvchi muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ldi. U bolaning shaxsiy qadr-qimmatini, huquqlari va ehtiyojlarini e‘tirof etishga asoslanadi. Bunday yondashuvda bola faqat ta‘lim ob‘yekti emas, balki faol sub‘yekt sifatida qaraladi. Bu esa uning mustaqil fikrlashi, o‘z-o‘zini anglashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari ekotizimli yondashuv va insonparvarlik paradigmasining integratsiyasi ijtimoiy xavfni kamaytirishda eng samarali mexanizm ekanligini ko‘rsatdi. Chunki ekotizimli yondashuv muhitlarning o‘zaro ta‘sirini hisobga olsa, insonparvarlik paradigmasi bolaning ichki imkoniyatlari va ehtiyojlarini

rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ikki yondashuvning uyg'unligi bola uchun xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi muhit yaratish imkonini beradi.

To'rtinchidan, oila, maktab va jamoa o'rtasidagi samarali hamkorlik bola rivojlanishining hal qiluvchi omili ekanligi aniqlandi. Agar ushbu tizimlar o'zaro muvofiq va maqsadli faoliyat olib borsa, bolaning ijtimoiy moslashuvi, ruhiy barqarorligi va ta'lim natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Aks holda, ular o'rtasidagi uzilish yoki nomutanosiblik ijtimoiy xavf omillarini kuchaytirishi mumkin.

Beshinchidan, ta'lim tizimida "himoya va qo'llab-quvvatlash" tamoyillarini ustuvor yo'nalish sifatida joriy etish zarurligi asoslandi. Bu tamoyillar bolani zo'ravonlik, kamsitish va psixologik bosimdan himoya qilish, shuningdek, uning ichki salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bunday muhitda bola o'zini qadrlangan va xavfsiz his qiladi, bu esa uning barkamol rivojlanishiga zamin yaratadi.

Oltinchidan, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'lim jarayoniga joriy etish ijtimoiy xavflarni kamaytirishning strategik yo'nalishi sifatida namoyon bo'ldi. Ijtimoiy adolat har bir bola uchun teng imkoniyatlarni ta'minlansa, barqaror rivojlanish kelajak avlod uchun sog'lom va xavfsiz muhit yaratishni ko'zda tutadi. Bu ikki tamoyilning uyg'unligi ta'lim tizimining insonparvar va ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

Yettinchidan, zamonaviy ta'lim muassasasi faqat bilim beruvchi tashkilot emas, balki bolaning ijtimoiy himoyasi, psixologik qo'llab-quvvatlanishi va shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi kompleks ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritishi lozimligi ta'kidlandi. Bu esa pedagog, psixolog va ijtimoiy xodimlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab etadi. Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy xavf ostidagi bolalar bilan ishlashda ekotizimli yondashuv va insonparvarlik paradigmasini uyg'un holda joriy etish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb va strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etish, balki ularning oldini olish, bolaning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va uning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бронфенбреннер У. Экология человеческого развития: Эксперименты природы и дизайна. – М.: Прогресс, 2006. – С. 38.
2. Бронфенбреннер У. Экология человеческого развития: Эксперименты природы и дизайна. – М.: Прогресс, 2006. – С. 38.
3. Бронфенбреннер У. Экология человеческого развития. – Москва: Прогресс, 2006. – С. 38.
4. Роджерс К. Становление личности: взгляд на психотерапию / пер. с англ.; предисл. и коммент.
5. Т. Г. Стефаненко. – М.: Смысл, 2002. – 480 с.; Маслоу А. Мотивация и личность / пер. с англ.; 3-е изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2004. – 352 с.
6. Л. С. Проблемы общей психологии / под ред. Р. В. Рибера, А. С.
7. Пиаже Ж. Постпиажеанские перспективы когнитивного развития // Oxford Research Encyclopedia of Education. – Оксфорд: Oxford University Press, 2020. – URL: <https://oxfordre.com/education/> (дата обращения: 27.10.2025).